

KOOPERATSIYA (HAMKOPLIK) KOMPETENSIYASI ASOSIDA JAMOA BILAN ISHLASH

Xaydarova Gulbaxor Alilovna

Izboskan tuman 11-maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida rahbar xodimlar va tarbiyachilarining pedagogik metodlar va usullarni mustaqil ishlab chiqish va ulardan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini yaratib berish yo'li bilan ularning pedagogik ijodiyotiga bo'lgan huquqini ta'minlaydi. Tashkilotda bo'ladigan ishlab chiqarish majlislariga qatnashib – tashkilotlarining mehnat jamoasi xalqchillik asosida o'z-o'zini boshqarish prinsipiga muvofiq, uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar hal etilishi, bularning davlat va jamiyat manfaatlariga rioya qilingan holda bo'lishini nazorat qiladi.

"Ijtimoiy maktabgacha tarbiya tizimi oilaviy tarbiyadan uzilib qolmasligi kerak, balki u bilan chambarchas bog'liq holdagina bolaga yordam berish mumkin". "Barcha ma'naviy qadriyatlar oilada tarkib topadi. Ta'lim jarayonini tashkil qilishning asosi sifatida shaxsiy yondashuv shaxsnинг jamoada e'tirof etilishi, unda insonparvarlik o'zaro munosabatlarini yaratishni bildiradi. Mazkur munosabatlar sababli bola o'zini shaxs sifatida anglab, boshqa insonlar (kattalar va tengdoshlar)da ham shaxsni ko'ra olishga o'rganadi. Tengdoshlar, bolalar jamoasi har bir bolaning imkoniyatlari amalga oshirilishi kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlari amalga oshirilishining yo'llari pedagogning qadriyatlar yo'nalganligiga, ya'ni uning moddiy va ma'naviy qadriyatlarga, hulq-atvorda namoyon bo'lувchi ustakovkalar tizimi, e'tiqod, afzallikkarga tanlab munosabatda bo'lishiga bog'liq.

Kooperativ ta'limning maqsadi – jamoaning har bir a'zosini shaxs sifatida yanada muvafaqqiyatli va kuchli qilishga erishish.

Xorijlik olimlarning tadqiqotlarida "kooperatsiya" va "raqobat" bolalarning faoliyati maqsadi sifatida e'tirof etilgan. D.B.Millerning qayd etishichuya, kooperatsiya vaziyatida umumiy maqsad mavjud bo'lib, guruhlarga taqsimlangan o'quvchilarining hammasiga vazifalar bo'lib beriladi, raqobat vaziyatida guruhning har bir a'zosi yaxlit tarzda qo'yilgan maqsadgi individual erishishi talab etiladi.

M.A.Mey, L.U.Duba ham kooperatsiya jarayonida uning ishtirokchilari o'rtaida taqsimlangan birgalikdagi umumiy maqsadning mavjudligi va ular o'rtaida do'stona munosabatlarning qaror topishini qayd etib o'tishadi.

M.Mid kooperatsiyada umumiy maqsadga erishish yuzaga keladi, raqobat jarayonida boshqalar xuddi shu vaqtida erishishga intilayotgan natijani izlanadi va qo'liga qiritiladi, deb hisoblaydi.

Ch.Bernard (C.I.Barnard) "kooperatsiya" va "raqobat" tushunchalarini shaxsnинг biologik jihatи bilan bog'liqlikda tushuntirishga harakat qilib, turli vaziyatlarda kishilarning imkoniyati biologik omillar sababli cheklangan, kooperatsiya esa, uni bartaraf etishning samarali metodi sifatida yuzaga chiqadi, degan xulosaga kelgan.

X.B.Lyuis(H.B.Lewis)ning tadqiqotida "kooperatsiya" va "raqobat" tushunchalarida yetakchi nuqtai nazar sifatida shaxsni o'rganishga nisbatan psixologik yondashuv yuzaga chiqishi ta'kidlanadi. U kooperatsiya va raqobat insondagi egoning ortishi yoki kamayishining namoyon bo'lishi, degan xulosaga kelgan.

Rahbar shaxsiy-rivojlanuvchi o'zaro ta'sir sharoiti sifatida psixologik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishda:

1.Jamoaning umumiy maqsadlarini qabul qilish:

- jamoaviy umumiy maqsadga qo'shilishi, jamoa bilan birga ishslash, o'z ishining natijasini jamoaviy qarorga krita olish, jamoaviy ishda his-tuyg'ularini boshqara olish;

2. O'zaro birgalikdagi ijtimoiy harakat:

- muhokamada ishtirok etish, kelisha olish, o'zaro hurmatda bo'lish, boshqalar fikrini eshitish va qabul qilish, o'z harakatlarini jamoa boshqa a'zolarining harakatlari bilan uyg'unlashtirish, ularga yordam berishga tayyorlik;

- umumiy natija uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor turish;

3. O'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish:

- jamoada samarali ishslash uchun o'z majburiyatlariga ega bo'lish va vazifani bajarishga tayyorlik;

- natijaning sifatli bo'lishi uchun zimmasiga yuklangan vazifani ma'suliyat bilan bajarish, maqbul natijaga erishish;

4.Mustaqillik va tashabbuskorlik:

- mustaqil ishslash qobiliyati va belgilangan vazifa doirasida tashabbus ko'rsatish;

- guruh a'zolarini vazifani bajarishga jalg etish qobiliyati va ularni ruxan qo'llab-quvvatlash va mativatsiya qilish.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rahbar har safar hodimlar bilan topshiriqni bajarishga taklif qilar ekan, ularning jamoada ishslash qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. navbat bilan gapirish va har kimni alohida eshitish;

- barcha bildirilgan takliflarni o'rganib chiqish;
- boshqalarning takliflariga ular dilini og'ritadigan izohlar bermaslik;
- avvalo, jamoa a'zolari, so'ngra boshqa hodimlar yoki tarbiyachiga tushuntirib berish uchun murojaat qilish;
- jamoaning barcha a'zolariga vazifalar kelishilgan holda taqsimlanishiga kelishish;
- muayyan ish uchun ma'sullarni o'z xohishiga ko'ra belgilab qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. 1 жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
3. Boysen M. S. W., Larsen T. Ch. Does handoffs promote creativity? A study of a pass-the-baton approach to the development of educational games // Thinking Skills and Creativity. – 2019. – Vol. 31. – P. 262–274.
4. Боно Э. Серьезное творческое мышление; перевод с английского Д.Я.Онацкой. – Минск: ООО «Попурри», 2005. – 416с.
5. Бьюзен Тони. Супермышления / Тони и Барри Бьюзен; пер.с англ. П.А.Самсонов. – Минск: Попурри, 2020. – 324 с.
6. Vincent-Lancrin, S., et al. (2019), Fostering Students' Creativity and Critical Thinking: What it Means in School, Educational Research and Innovation, OECD Publishing, Paris, p. 28. <https://doi.org/10.1787/62212c37-en>.
7. S. Sh. Abduraxmonova, S. U. Ergasheva "Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishining mazmuni" Science and education scientific journal ISSN 2181-0842 volume 4, issue 7 july 2023.- 482-484 bet.